

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM VAZIRLIGI AL-
XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti biologiya yo'nalishi
201- guruh talabasi Abdiyeva Irodaning Botanika fanidan**

KURSISHI




Topshirdi

Abdiyeva I

Tekshirdi.

Razzoqov Q



MAVZU:Dorivor o'simliklar . Ularning biologiyasi va ekologiyasi

REJA.

I.KIRISH

II.ASOSIY QISM

1.Dorivor o'simliklarning sitematik va ekologik guruhleri .Hayotiy shakllari

2.Tabiiy holda tarqalgan dorivor o'simliklarning biologiyasi va ekologiyasi

3."QIZIL KITOB"ga kiritilgan dorivor o'simliklar.

4.Dorivor o'simliklarning inson salomatligini saqlashdagi ahamiyati

III.XULOSA

IV . FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Dorivor o'simliklar tabiatda va inson hayotida katta ahamiyatga ega. O'simliklar dunyosi jumladan dorivor o'simliklari ham tabiat boyliklarida biri hisoblanadi.

Shifobaxsh o'simliklarning xosiyati qadim zamonlardan odamlar ma'lum. Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli kasalliklari ishlatiladigan dori- darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklarda tayyorlanayotgan dorilar katta ahamiyatga ega. Juda ko'pchilik dorivor o'simliklar dorixonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xomashyo manbai hisoblanadi.

O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan va o'stiriladigan o'simliklar soni 4150 ga yetadi. Shulardan 577 tasi shifobaxsh xususiyatga ega.


Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan , dorivor preparatlarining qariyb 45 % o'simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi.

Dorivor o'simliklar turli xil sistematik guruhlarga ega . Ular turli xil zonalarda tarqalgan.

Dorivor o'simliklar ning turli xil organlari dorivorlik xususiyatiga ega.

Masalan ularning bargi, ildizi, poyasi, guli, mevasi, urug', po'stlog'I, ildizmevasi, piyozboshi, tugunagi va boshqa organlari dorivorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ularning har biri har xil organda bo'ladigan kasalliklarga da'vo bo'ladi. Ko'pchilik o'simliklar dorivorlik xususiyatiga bo'lishi bilan birga zaharli hamdir. Shuning uchun ularni olishda ehtiyotkorlik bo'lish kerak. Tabiiy holda tarqalgan dorivor o'simliklarni ko'pchilik bilmaydi. Shuning uchun ulardan noto'g'ri foydalanganliklari uchun ular hozirda "Qizil kitob" ga kiritilgandir. Tabiiy holda keng tarqalgan dorivor o'simliklardan achchiqmiya , bo'yodoron , bo'znoch, isiriq, na'matal, ukrop, kashnich, yalpiz kabilardir. Dorivor o'simliklar juda ko'pgir kasalliklarga da'vo bo'ladi. Masalan :

1. Shamollashga



2.Yallig'lanishga

3.Oshqazon- ichak

4.nafas yo'llari

5.qon ketganda

6.qon bosimida

7.ichni haydash

8.Yo'talga qarshi va boshqa kasalliklarga

Dorivor o'simliklarsiz dori tayyorlab bo'lmaydi.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ular-ning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlik-larning qismlarida turli miqdorda to'planadi.Dori tayyorlash uchun o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi, masalan, po'stlog'i, kurtagi erta bahorda, bargi o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug'lari pishganda, ildiz, ildizpoya bahorda yoki kech kuzda olinadi.

II.1.DORIVOR O'SIMLIKLARNING SISTEMATIK VA EKOLOGIK TARQALISHI. HAYOTIY SHAKLLARI


Tabiat bitmas tuganmas xazina hisoblanadi. Tabiatning ajralmas tarkibiy qismi o'simlik dunyosidir. O'simliklar ham o'z navbatida bi necha turlarga turlarga bo'linadi. Shulardan eng muhimlari dorivor o'simliklardir.

O'zbekistonda uchraydigan dorivor o'simliklar quyidagi ekologik sharoitlarda keng tarqalgan.

1. Cho'l
2. Adir
3. Tog'
4. Yaylov

Cho'lda tarqalgan dorivor o'simliklar nisbatan kam. O'zbekistonda cho'llarida cherkez, cho'g'on, anabasis, keyreuk, yovshan, kovrak, isiriq, achchiqmiya kabi ko'plab dorivor o'simliklar uchraydi. Cho'lda namlikning tanqisligi tufayli ko'pchilik dorivor o'simliklar erta mart-aprel oylarida o'sib chiqib qishning dekabrigacha hayotini davom ettiradi. Bularda tashqari hali biologiyasi o'rganilmagan ko'plab dorivor o'simliklar hali cho'l zonasida uchraydi.

Adir zonasi ham o'ziga xos dorivor o'simliklar qoplamiga ega. Adir mintaqasining tuprog'i och tipik va to'q bo'ztuproqdan iborat. Adirning tuprog'i qizg'ish ko'rinadi. Adirning tuprog'i cho'l zonasiga qaraganda yumshoq va namlik birmuncha yetarli bo'lishi hamda tuprog'ining unumdorligi bilan farq qiladi. Adirlarda qoqio't, isfarak, cho'lyalpirovoch, g'azako't, gulxayri kabi juda ko'p dorivor o'simliklar uchraydi. Dengiz sathidan 1200-1500 metrdan 2700-2800metrgacha bo'lgan joylar tog'li hisoblanadi. Respublikamiz tog'laridagi jigarrang tuproqlar avtomorf tuproq hisoblanib, ko'pincha quruq tog'lar mintaqasida uchraydi. Tog' mintaqasida donli va dukkakli ekinlar ekiladi. Bu yerlarda o'sadigan darxt buta va o'tlarning ko'pchiligi dorivolik xususiyatiga ega. Tog'larning tuprog'i cho'l va




adirlarga qaraganda ancha yaxshi hisoblanadi. Bu yerlarda namlik ko'p bo'ladi. Pastki tog' mintaqasida bir yillik dorivor o'simliklar uchraydi. Tog'larda zirk, tog'yalpiz, yalpiz, na'matak, qizilcha, kabi birqancha dorivor o'simliklar o'sadi.

Dengiz sathidan 2700-2800 metr va undan ham baland bo'lgan barcha yerlar yaylov mintaqasiga kiradi.

Bu yerlarda ayniqsa dorivor o'simliklar dan o'tlar juda ko'p uchraydi. Lekin daraxt va butalar o'sishi uchun sharoit yetarli emas. Pastki yaylovda mezo-fauna dorivor o'simliklar ko'p uchraydi. Bu yerda juda xilma-xil bo'lgan dorivor o'simliklar ko'p.

Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli xil kasalliklarni da'volashda ishlatiladigan dori-darmonlar shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar salmoqli o'rin tutadi. Juda ko'pchilik dorivor o'simliklar dori-xonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xomashyo manbai hisoblanadi. Biz dori-darmonlardan foydalanayotganimizda, ko'pincha shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotganini hayolimizga ham keltirmaymiz. Masalan kardivalen- yurak kasalliklarini da'volashda qo'llaniladigan sifatli dorilardan bo'lib, u do'lana asarun (valeriana) sariqgul (adonis) va boshqa bir o'simlik turlarida tayyorlanadigan murakkab birikmadir.

Hozirgi vaqtda tibbiyotda ishlatiladigan 900 dan ortiqroq xil dori-darmonlarning uchdan bir qismi dorivor o'simliklarning maxsus hisoblanadi. Yurak kasalliklarini da'volashda foydalaniladigan dorilarning 77 % , I jigar va oshqazon- ichak yo'llarida uchraydigan kasalliklarni da'volaydigan dorilarning 74 %i , bachodon kasalliklariga qarshi ishlatiladigan dorilarning 80 %i shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangandir. MDX mamlakatlar florasida uchraydigan 17500 tur yuksak sporal va gulli o'simliklarning tibbiyotda 70 oilaga mansub bo'lgan 247 tur qo'llanilmaoqda . Hozirgi paytda tashlandiq, bo'z va cho'l yerlarni o'zlashtirilishi sababli, yovvoyi dorivor o'simliklarning turlari va boylilari




kamayib ketmoqda. Bundan tashqari , shifobaxsh o'simliklarning tabiiy boyliklarining hosildorligi har yilgi sharoitiga bog'liq bo'lib, ko'pincha barqaror emas. Shu tufayli shifobaxsh o'simliklarning 50 turlari madaniylashtirilgan holda ekilmoqda. S.S. Sahobiddinov ma'lumotlariga qaraganda O'rta Osiyo O'simliklar olamida dorivor o'simliklarning 473 turlari xalq tabobatida turli kasalliklarni da'volashda foydalanilmoqda . X. Xolmatov va Z. Habibovlarning ko'rsatishicha jumxiyrimiz florasida dorivor o'simliklarning 577 turi aniqlangan .

Dorivor o'simliklarning shifobaxsh bo'lishi ular tarkibidagi kimyoviy moddalarning turli tumanligiga va shu moddalarning inson yoki hayvon organizmida kasallik tug'diruvchi manbai (zamburug', bakteriya va viruslariga ta'sir etish samaradorligiga bog'liq).

Dorivor o'simliklar dan tayyorlanadigan dori-darmonlar organizmga ta'sir etish xarakteriga qarab

- 1.Tinchlantiradigan
- 2.Uxlatadigan
- 3.Og'riq qoldiradigan
- 4.Qon ketishni to'xtatadigan
- 5.Karaxt qiladigan
- 6.Qo'zg'atadigan
7. Darmonsizlatadigan
- 8.Quvvatlantiradigan
- 9.Qayt qildiradigan
- 10.Yaralarni bitiradigan
- 11.AntibiotikSingari gruppalariga bo'linadi.

Odamlar ham, hayvonlar ham kasallanishi mumkin. Lekin yovvoyi hayvonga kim dori-darmon qilib beradi? Uning dorixonasi o'rmon.U o'rmon o'ziga-o'zi o'simlikdan dori axtarib shifolanadi.



Odamlar ham, hayvonlar ham kasallanishi mumkin. Lekin yovvoyi hayvonga kishi dori-darmon qilib beradi? Uning dorixonasi o'rmon. U o'rmonda o'ziga-o'z o'simlikdan dori axtarib shifolanadi.

Qadim zamonlardayoq Janubiy Amerika hindulari kasal bo'lib qolgan pun (yovvoyi mushuk)lar qandaydir daraxtning po'stlog'ini g'ajishini sezganlar. Hindular bu daraxt po'stlog'i qaynatmasi bilan bezgakdan azob chekayotgan kasallik kishilarni davolab ko'rganlar.

Shu yo'sinda xin daraxti kashf etildi (Janubiy Amerikani zabt etgan ispanlar bu daraxtni shunday deb ataganlar). Bu daraxtning po'stlog'idan olinadigan xini butun dunyo-da bezgakka qarshi dori sifatida ishlatiladigan bo'ldi.


Bizning davrimizda esa maral bug'u olimlarga yangi dorivor o'simlik — levzeyani topishga yordam berdi. Kuz faslida bug'ular o'z raqibi bilan olishish maqsadida levzeyani ildizi-ni kemiradilar. Aniqlanishicha, maral iste'mol qiladigan bu ildiz odamga ham kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Lekin inson hamma vaqt ham hayvon ketidan ergashmagan. U dorivor o'simliklarni o'zi ham qidirib topgan.

Dorivor o'simliklarni izlash va amalda qo'llash bundan ming yillar ilgari boshlangan.

Qadimgi Misrda kasallar uchun ham, sog'lom kishilar uchun ham har oyning uchinchi kunida kanakunjut moyini ichish rasm bo'lgan. Qadimda uyqusizlik kasalligiga yo'liqqan kishilar Yunoniston shaharlaridan biriga kelishgan. Bemorlar bu shahar aholisining ko'knori sharbatidan tayyorlagan ichimligini ichishi bilan tashvish uyquga ketgan. Ertasi kuni ertalab bu musofirlar dehqonchilik ma'buda ibodatxonasiga kelib, uyqu keltiruvchi va og'riqni bosuvchi gulni kishilarga hadya etgani uchun ma'budaga minnatdorchilik bildirganlar. Ibodatxona koshinlari ko'knoridan gulchambar taqib yurishgan.

Ayrim hollarda dorivor o'simliklarni aniqlash insonga qimmatga tushgan, chunki dorivor o'simliklar ta'sirini u dastlab o'zida sinab ko'rgan. Zubturov barcho oyoqdagi yarani tuzatgan, qichitqi o't bargi esa kuydirgan. Bir qism limon osh mevasi ovchiga kuni bo'yi toliqmay hayvon ovlashga yordam beradi, mingdevor



mevasi esa kishining qo‘l-oyog‘ini tirishtirib, esi past odamga o‘xshab poyma-poy so‘zla-shiga sabab bo‘ladi.

Rivoyatlarga ko‘ra, dorivor zaharli belladonna o‘simligi Shotlandiyadagi bir qishloq aholisining dushmandan qutulishiga yordam bergan. Qishloqni Daniyalik askarlari ishg‘ol qilgan. Ular g‘alaba sharafiga pivo ichib, g‘oliblikda mag‘lublikka duchor bo‘lganlar. Shotlandiyaliklar pivoga aralashtirib bergan belladonna ning zaharli sharbati daniyalik askarlarni shol qilib qo‘ygan.

Qadim zamonlarda kishilarning bilim darajasi yetarli bo‘lmaganligi tufayli o‘simliklar ularga sehrli va fusunkor bo‘lib ko‘ringan. Xazinalar yashiringan joylarni topib beradigan, es-hushni olib qo‘yadigan, sevmaganni sevdiradigan o‘tlar borligiga ishonganlar. Odamchalarga o‘xshash jenshen va mehriyoh ildizi haqida ko‘pdan-ko‘p afsonalar to‘qilgan. Jen-shen ildizining kuchsizlanib, holdan toygan kishilarga quvvat bag‘ishlashi, albatta, mo‘jiza deb bilingan. Vaqtlar o‘tishi bilan ilm va fan muayyan o‘simliklikning qanday qilib davo bo‘lishini tushuntirib beradigan afsonaviy gaplar esa, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi.

Dorivor o‘simliklarning shifobaxshligi — ular tarkibida ma’lum ta’sir qiluvchi kimyoviy moddalar: alkaloidlar, flavonoidlar, glikozinlar, vitaminlar va oshlovchi moddalar va boshqalar borligidadir.

Ko‘pgina shifobaxsh o‘simliklar tibbiyotda qo‘llaniladi va hozirgi kunda ham kishilar o‘simliklarning kimyoviy tarkibini mukammal o‘rganishga erishdilar. Bu esa o‘z navbatida yangi-yangi kashfiyotlarga olib keldi. Hozirgi kunda mog‘or zamburug‘i deb ataladigan zamburug‘dan penitsillin dorisi tayyorlanmoqda.

Ba’zi dorivor o‘simliklar, masalan, yalpiz plantatsiyalarda ko‘paytirilmoqda. Tashir-tishini yuvishdan erinmaydigan har bir kishi yalpiz moyidan har kuni bahraman bo‘ladi. Yalpiz moyining aso-siy qismini tashkil etgan modda – mentol tashir-tish poroshogini xushbo‘y qiladi. Mentol validol va boshqa yurak kasalligi dorilari tinchlantiruvchi dorilarga, kosmonavtlarning ovqatlanish ratsioniga kiradigan yalpizli karamelga ham qo‘shiladi.

Mamlakatimiz yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarga ham bo‘lgan. O‘rmonlarda marvaridgul o‘sadi, undan yurak kasalligi bilan og‘riganlarga davo beriladi.

tayyorlanadi, o'rmon etagi va nam o'tloq yerlarda o'sadigan valerian o'simligildan tinchlantiruvchi dori ishlanadi. O'tloq yerlarda har qadam dalachoy (uni xalq orasida 95 dardga davo bo'ladi deyishadi), bo'yimodaro ko'ko't, gazako't, qora andiz va boshqa dorivor o'simliklar o'sib yotadi.


Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ular-ning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlik-larning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dori tayyorlash uchun o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi, masalan, po'stlog'i, kurtagi erta bahorda, bargi o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug'lari pishganda, ildiz, ildizpoya bahorda yoki kech kuzda olinadi.

Dorivor o'simliklar havo ochiq paytida, shudring ko'tarilgach yig'ib olinadi. Shuni esda tutish kerakki, ko'pchilik o'simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo'ladi. Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar biroz ortiqroq bo'lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, issiriq, kuchala, marvaridgullar, mingbosh, mingdevona va boshqalar shunday zaharli dorivor o'simliklar jumlasidandir. Shuning uchun o'simliklarni og'izga olmaslik, shu-ningdek ularni yig'ib olayotgan paytda qo'lni ko'zga urmaslik kerak. O'simliklarni yig'ib olgandan keyin qo'lni yaxshilab yuvish lozim.

DORIVOR O'SIMLIKLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Juda ko'p o'simlik turlari shifobaxsh, yani dori darmonlik xususiyatiga ega. Garchi shunday ekan ularning quvvat beruvchi kuchlari nimalarga bog'liq? Avvalo shuni qayd etish lozimki, o'simliklar murakka organic moddalar yoki birikmalarni hosil qilish qobiliyatiga ega.

Ana shu hosil bo'lgan murakkab tuzulishga ega bo'lgan moddalar faqat o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi jarayonida aniq bir fiziologik vazifani bajaribgina qolmay, balki ularni tashqi muhit ta'sirlaridan himoya qilishda ham muhim ahamiyatga ega.



Shuningdek o'simlik organlarida to'plangan organik yoki biologic akt moddalar sanoatimiz va xalq xo'jaligimizning turli tarmoqlari hamda tibbiyot shaxobchalari uchun yuqori sifatli xom ashyo manbalarida hisoblanadi.

Dori-darmon xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar tarkibida uglevodorodlar , organik kislotalar , polisaxaridlar , kraxmal, oqsil moy va moy kislotalar , efir moylari , alkaloid, tanid, oqsil, saponin, glyukoza achchiq moddalar , fitonsitlar, mikroelementlar , vitaminlar, mineral tuzlar va boshqa moddalar bo'ladi.

Shu moddalarning kompleks ta'siri sababli o'simliklar dori-darmonlik xususiyatiga ega. Bu birikmalardan ayrimlari quyidagilar

Bo'yoq moddalar :o'simlik organlari turli pigmentlarni ya'ni bo'yoqlar saqlaydi. Ularga xlorofill , flavonoid, antotsian , karatinoid va boshqalar kiradi.

Alkaloidlar :O'simliklarning turli organlarida to'planadigan azot saqlovchi va ishqor xususiyatiga ega bo'lgan juda murakkab organik birikmalarda tashkil topgan moddalardir. Alkaloidlardan morfin , papaverin, xinin , kofein , kodein kabi turli xil dori-darmonlar ishlab chiqariladi. Ular tibbiyotda turli xastaliklarni davolashda keng ko'lamda qo'llaniladi.

Fitonsitlar :O'simlik organlarida to'planib mikroorganizmlarni qirib tashlash xususiyatiga ega bo'lgan murakkab tuzulishdagi organik moddalar da hisoblanadi.

Kraxmal :Polisaxaridlarga mansub bo'lib, murakkab tuzulishga ega. organizmni tetiklashtiradi hamda quvvatni oshiradi. Tirik organizmda unda glyukoza hosil bo'ladi. Kraxmaldan tibbiyotda oshqazon-ichak hamda ter kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dori-darmonlar qo'llaniladi.

Polisaxaridlar :O'simliklarning barcha organlarida ayniqsa, meva , tugunak ildiz hamda piyozlarida ko'p bo'ladi. Polisaxaridlar murakkab tuzulishga ega bo'lib, uglevodlar yig'indisidan tashkil topadi. Ular kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan moddalardan biri hisoblanadi.

Oqsillar :O'simliklarning asosan, urug'i hamda mevalarida ko'p uchraydi. Ular to'yimli oziq-ovqat manbai hisoblanadi. Oqsillar proteoliz fermenti ta'sirida aminokislotalarga parchalanadi, organizmida moddalarning almashinuvi ni to'g'ri yo'lga qo'yishda ishtirok etadi hamda uning kuchini oshiradi.

Vitaminlar: Ular murakkab organik birikmalardan hosil bo'lgan bo'lib, o'simliklarning barcha organlarida bo'ladi. Vitaminlar inson to'qimalarida uchun doimiy va zaruriy komponentlar hisoblanadi. Moddalarning almashinuvi jarayonida aktiv ishtirok etadi. Inson organizmini turli kasalliklardan himoya qilish qobiliyatini oshiradi. Qon tomirlarining devorlarida xolestirin to'planishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, qon tarkibini doimiy saqlab turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyotda esa malham dori krem va plastir tayyorlashda, ba'zida dorivor moddalarni eritishda ishlatiladi. Ko'pincha o'simliklar moylari qon tomir hamda tomirchalari devoridagi xolestirin moddalarini eritishda xususiyatiga ega. O'simliklarning shifobaxshligi faqat yuqoridagi moddalarga bog'liq bo'libgina qolmay, balki bir qancha organik birikmalar mineral tuzlar makro hamda mikroelementlar ning o'zaro birga ta'sir etish kuchiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Dorivor o'simliklar turli xil hayotiy shakllarga ega. Ular orasida b yillik, ikki yillik, ko'p yillik o'tlar, butalar va daraxtlar ham uchraydi.

Daraxtlar orasida dorivor o'simliklardan qushjiyda.

Qushjiyda (*Elaeagnus angustifolia*)- jiydadoshlar oilasiga mansub bo'lib, balandligi 8 m keladigan, po'stlog'li qo'ng'ir –qizil rangli daraxtdir. Yovvoyi holatda va barglari kumushsimon oq tukchalar bilan qoplangan. Bargi ellipssimon shaklda bo'lib, uzunligi 3,5-7 sm va eni 0,7-1,8 sm bandi 1 sm gacha bo'ladi.

. Guli xushbo'y hidli, gulbandli, barg qo'ltig'ida 1-3 ta bo'lib joylashgan. Gulqo'rg'onining tashqi ko'rinishi kumushsimon-oq ichki tomoni deyarli tuksiz va sariq rangdadir. Changchisi juda qisqa, ipsimon.

va cho'ziq changchidan iborat. Mevasi danak mevidan iborat bo'lib dumaloq- tuxumsimon shaklli , bo'yi 1,3 sm , eni 0,7 sm keladi. Dana cho'ziq- tuxumsimon shaklli usti chiziqli , uzunligi 1 smga eni esa 0,5 smga teng. Qushjiyda may oyida gullaydi, mevasi sentabr oyida yetiladi. Bu o'simlik O'zbekistonning barcha viloyatlarida yovvoyi holda va qisman madaniy holda o'sadi. U ayniqsa, to'qayzorlarda hamc shoxok yerlarda ko'p tarqalgan . U manzarali , asalchil, mevali hamc efir moyli o'simlikdir. Uning mevasidan oziq-ovqat sifatida , tibbiyotda esa dori- darmonlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Qushjiydaning bargi bod va bel og'riqni , mevasi esa ichketishda davolaydigan vositadir. Uning tarkibida 10 % tanid moddasi bo'lib ularidan tei oshlashda foydalanish mumkin. Qushjiydaning har bir tupi 2- 20 kg jiyyda olish mumkin. Qushjiyda ning mevasi qand moddasiga juda boydir . Ularda 50 % uglevodlar , 11 % oqsil, 12 % klechatka , tanid moddalari va mineral tuzlar bor . Shuningdek , mevasi tarkibida 0,5 mg % B₁, 0,21 mg% B₂, 0,069 mg % PP, 93 mg % C , 0,23 mg% vitaminlari bo'ladi. Barglarida 8-12 % tanid va 200 mg % C vitamini bor.

Zag'oz(Ephedra equisetina Bge) zag'ozadoshlar oilasiga kiruvchi bo'yi 1,5 metr keladigan butadir. Poya novdalari bo'g'imli , po'stlog kulrang bo'ladi. Novdasi tik o'sadi, to'g'ri , silliq, bilinar- bilinmay ariqli , bo'g'im oraliqlari 2 smga teng. Barglari tangachalar shaklida bo'lib, novdada qarama-qarshi joylashgan. U ochiq urug'li o'simlik toifasidan bo'lganligi uchun ularda haqiqiy gullar bo'lmaydi.. Shu sabab ularning changchi va urug'chilari joylashgan joyni erkak gullar va urug'chilar deb atash changchilar yig'indisini erkak gullar va urug'chilar yig'indisini urug'ochi gullar deb atashga odatlanilgan Changdonli qubbalarining uzunligi 4-5 mm bo'lib, dumaloq, 2-3 mm diametrda bo'lgan changchilidir. Mevasi etdor , sharsimon, qizil , 6-7 mm ga teng urug' nashtarsimon, ikki tomoni bo'rtib chiqqan , 4-6 mm uzunlikda bo'ladi. Zag'oz iyul oyida gullaydi, mevasi iyul oyida pishadi.


U tog' mintaqasining toshli yonbag'irliklarida qoya toshlarda o'sadi. E o'simlik xalq tabobatida qichima, bod, shamollash, oshqazon yaralari da'volashda , mevasi esa haroratni tushirishda qo'llaniladi. Zag'ozada efidrin alkaloidi olinadi va bu alkaloid tibbiyotda turli kasalliklari da'volashda ishlatiladi. Uning tarkibida 14 % gacha tanid, bo'yc moddalari , C vitamin va organik kislotalar ham mavjud.

Omonqora (Ungernia victoris Vved) chuchmomaguldoshlar oilasi kiruvchi ko'p yillik o'tdir. U ning tuxumsimon piyozi 4-7 sm kattalikka bo'lib, qo'ng'ir- qora rangda . Bargi poyada 2 qator bo'lib, joylashgan eni 2-3 sm , uzunligi 20-25 sm ga teng. Soyaboni (2) 4-7 gulli bo'li hammasi bir tomonga qaragan. Gullari sarg'ish- pushti rangda bo'ladi. Ko'sakchalari keng – yurkasimon ajralgan , eni 2-2,5 sm . Omonqora o'simlik Surxandaryo viloyatida tog' mintaqasining o'rta qismidagi lo tuproqli yerlarda ko'p uchraydi . E.e. Korotkovaning ta'kidlashicha , har yili uning ho'l holatdagi bargidan 300-500 t hosil yig'ish mumkin. Gektaridan esa 4-30 t ho'l barg va 30-300 sr piyoz yig'ib olish mumkin. Omonqora ildizi galantamin alkaloid olishda asosiy xomashyo manbai hisoblanadi. Bu moddalar tibbiyotda shol , radikulit va boshqa as kasalliklarini da'volashda ishlatiladi.

Qashqarbada (Melilotus officinalis Ders)

dukkakdoshlar oilasiga mansub, ikki yillik o'simlik. Poyasi tik, shoxlangan , tuksiz , yoki uning yuqori qismi tukli bo'lib, bo'yi 100 (150) sm gacha bo'ladi. Yonbargchasi bigizsimon, bargi tuxumsimon, uzunligi 9-25 mm eni 3-16 sm ga teng . Shingilsimon to'pgulida 30-80 ta guli bor. Gultojibarglari sariq rangli. Dukkaklar tuxumsimon bo'lib, 5-8 mm kattalikda ko'ndalangiga g'adur-budir tuksiz.





Qashqarbeda may-avgust oylarida gullaydi hamda urug'laydi. Bu o'simlik Respublikamizning barcha viloyatlarida begona o't sifatida keng tarqalgan. U yo'l yoqalarida , bog'larda, ekin maydonlarida , aralash bo'ylarida, o'tloqzorlarda uchraydi. Xalq tabobatida qashqarbedaning yer ustki qismidan olingan qaynatma isitma kasalligini davolashda ishlatiladi. Barglaridan tayyorlangan talqondan yaralangan yaralarni davolashda foydalaniladi. Farmatsevtikada turli dorilar tayyorlashda qo'llasa bo'ladi. Bolgariyada bu o'simlik sharbati chipqon, quloq og'rig'i , migren hamda qon bosimga qarshi vosita hisoblanadi. Qashqarbedaning yer ustki organlarining tarkibida 398 mg % C, 45 mg % E vitaminlari , 8,5 mg % karotin, 0,25 mg % melilotin- glyukozid, , kumarin, xolin, tanid va flavon glyukozid bo'ladi.

Bo'tako'z (*Centaurea depressa* MB) murakkabguldoshlar oilasidan , bo'tako'z 50 smga yetadigan bir yillik o't o'simlik. May- iyun oylarida gullaydi. Mevasi iyun -iyul oylarida pishadi. U siydik haydovchi dori sifatida buyrak va qovuq kasalliklarida qo'llaniladi. O'simlik guli ba'zi siydik haydovchi choylar tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida issiqni tushiruvchi sifatida va ba'zi ko'z kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Adir va to'q zonalarida begona o't sifatida o'sadi.

II.2. Tabiiy holda tarqalgan dorivor o'simliklarning biologiyasi va ekologiyasi

O'zbekiston hududida tabiiy holda uchraydigan dorivor o'simliklar juda ko'p bo'lib, ular kasalliklarni davolashda asosiy xomashyodir. Ular orasida cho'l, tog' va boshqa joylarda tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklar kiradi. Masalan achchiqmiya.

Achchiqmiya turlari- Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona va Buxoro viloyatlarining cho'l va yarim cho'lida, qirlarida, tog' etaklarida tepaliklarida begon o't sifatida bug'doyzorlarda va boshqa yerlarda o'sadi. Achchiqmiyaning quyidagi turlari mavjud.

1. Oddiy achchiqmiya - *Goebelia alopecuroides*
2. Qali mevali achchiqmiya (eshakmiya) – *Goebelia pachycarpa*. Achchiqmiya preparati gush 9 egzema) va ba'zi teri kasalliklarini davolashda ham ishlatiladi. Hozirgi kunda undan oqilor foydalanilmaganligi uchun uning turlari kamayib bormoqda. Keyingi yillarda kamayib, borayotgan dorivor o'simliklardan biri bo'ymodoron.

Bo'ymodoron (*A. hillea millefolium* L) ko'p yillik, bo'yi 20-50 sm, ba'zida 80 smgacha bo'lgan o'ziga xos xushbo'y o't. O'simlik poyasi bir necha, tashqi o'suvchi yuqori qismi shoxlangan bargi 3 marta patsimon ajralgan, poyasi bandsiz ketma-ket joylashgan. Gullari oqish, savatchaga to'plangan. Savatcha o'z navbatida qalqonsimon to'pgulni tashkil etadi. Mevasi yassi tuxumsimon, kulrang pista. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentabrda pishadi. O'simlik gullagan paytda poyasining yuqori qismi gul va barglari bilan o'rilganligi tufayli keyingi yillarda juda kamayib ketmoqda.

Tabiiy holda uchraydigan dorivor o'simliklar orasida isiriqqa teng keladigan bo'yq. Uning lotincha nomi *Peganum karmala* L.

Isiriq O'rta Osiyo va sharq xalqlari tabobatida asrlar davomida ishlatilgan kelinayotgan asosiy shifobaxsh o'simliklardan biri hisoblandi.

Isiriq-O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlaridagi cho'llarda, adirlarda, foydalanilmay yotgan o'tloqlarda, tog'larning quyi qismlarida, qumloq, toshloq, turoqli joylarda begona o't sifatida ekiladi.



Isiriq ko'p yillik, bo'yi 20-60 sm gacha yetadigan o't o'simlik. Ildizi yer ostida 2 metr gacha chuqurlikka joylashadi. Poyasi bir nechta sershox, tuksiz, Bargi oddiy, chuqur, 4-5 bo'lakka ajralgan, kurak - yashil tusda. Poyasining pastki qismidagi barglari qisqa bandli yuqoridagilari esa bandsiz, Poyada ketma-ket o'rnashgan. Gullari oq shoxlarining uchki qismida yakka-yakka joylashgan. Mevasi - sharsimon, uchchanoqli ko'sakcha. May - iyun oylarida gullaydi, mevasi kuzgacha pishadi. O'simlik gullaganida yer ustki qismi yig'ib olinib, salqin yerdan quritiladi.

Isiriq mevasi pishganda o'simliklarning poyasini yuqori qismida o'roq bilan olinadi, so'ngra quritib, yanchib, elab urug'lari ajratiladi. Abu A. Ibn Sino isiriqni bo'g'inlar og'riganda va nerv kasalliklarida og'riga qoldiruvchi dori sifatida ishlatgan. Buning uchun u og'rigan yerga isiriqning yer ustki qismini ezib bog'lashni tavsiya etgan. Xalq tabobatida isiriqning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma bod, bezga, tutqanoq, uyqusizlik, shamollash va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Bulardan tashqari qo'tir va boshqa teri kasalliklariga ham davolash qilinadi. Urug'idan tayyorlangan qaynatma zig'ir urug'ining qaynatmasi bilan birga nafas qisishi, nafas olishning qiyinlashishida qalampir urug'i

qaynatmasi bilan esa zahm bod kasalliklarini da'volashda ishlatiladi. Isiriqning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma odamni terlatadi va siydik haydaydi.

Isiriqni kuydirib bosh og'riganda hidlanadi. Ilmiy tibbiyotda isiriqning dorivor preparatlari (nastoyka, garmin alkaloidlarining gidrokslorid tuzi Parkinson (qo'l , oyoq va boshqa yerlarning doimo titrab turishi va tutqanoq kasalliklarini da'volashda ishlatiladi.

Gripp kasalligi avj olgan paytlarda isiriqni bemor yotgan xonada tutatish yaxshi natija beradi. Bu tutun bakteriyalarni o'ldiradi. Tabiiy holatda o'sadigan dorivor o'simliklardan eng keng tarqalgani na'matak.


Na'matak-turlari xar xil vitaminlarga boyligi bilan mashxur . O'zbekistonda o'sadigan turlaridan quyidagilar ko'p yillardan buyon tabobatda ishlatib kelinadi.



1. Itburun – Rosa canina L
2. Fedchenko na'matagi – Rosa Fedschenhoana Rgl
3. Bagger na'matagi- Rosa Beggeriana Schrenk

Namatak turlari Toshkent, sirdaryo Jizzah Samarqand, Farg'on Namangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bog'larda dalalarda, tog'larning o'rta –yuqori qismidagi suv bo'ylarida, archazor va yong'oqzorlarda o'sadi.

Na'matak turlari bo'yi 2 metrgacha va undan baland bo'lgan tikanli but Bargi toq patli murakkab, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan Bargchasi 5-7 ta tuxumsimon va arrasimon qirrali , gullari yirik , yakkalik yoki 2-3 tadan shoxchalarga o'rnashgan . guli qizil, pushti, sariq yoki oq xushbo'y bo'ladi. Mevasi guli o'rnidan hosil bo'lgan shira bilan soxta meva. May oyidan boshlab avgustgacha gullaydi. Mevasi oktabrda pishadi. Na'matakning bir necha turlari mavjud. Na'matak turlari meva



tarkibida vitaminlardan C, B₂, K, P shuningdek karotin qandlar organ kislotalar, flavonoidlar , Oshlovchi, pectin va boshqa moddalar urug'ich yog' bor. Xalq tabobatida meva qaynatmasi yoki damlama bachodondan qon ketishini to'xtatuvchi, isitma qoldiruvchi dori sifatida ham me'da- ichak, (ich ketganda , qon aralash ich ketgan kasalliklari)da'volash og'iz bo'shlig'ida kasalliklarida (milk yaralanganda va unda qon oqqanda) og'iz chayish uchun ishlatiladi.

Ilmiy tibbiyotda ishlatish uchun mevidan damlama ekstrakt va sharb (ho'l mevidan) hamda tabletkalar , xolosas kabi dorivor preparatlar tayyorlanadi.

Tabiiy holda tarqalgan dorivor o'simliklarning ko'pchiligi yovvoyi holda tarqalgan bo'lib,, ular tabiat uchun va inson salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Ularning ko'pchiligi zararli bo'lishi mumkin , lekin insonlar ularning tabiiy manbalaridan juda keng maqsadda foydalanadilar. Ular ko'pincha tog'da, tog' yonbag'irlarida juda ko'p turlari uchraydi.

II.3.Qizil kitobga kiritilgan dorivor o'simliklar


Qizil kitobga kiritilgan dorivor o'simliklar juda ko'pdir .

“Qizil kitob” - bu o'simliklar xavf ostida ekanligini bildiradi. Aholining tabiatga ko'rsatayotgan noto'g'ri ta'siri tufayli nafaqat o'simliklar ball hayvonlarga salbiydir. Dorivor o'simliklar ham hozirgi kunda juda kamyob hisoblanadi. Dunyoga dong'I ketgan qimmatbaho o'simliklarimizdan yemak, bozulbang, bo'ymodoron, baliqko'z, shirach, choparpi , suv qalampiri , yovvoyi sallagul, ermon, ermon shuvog'I , zaytun , choy kabi birqancha dorivor o'simliklar “Qizil kitob “ga kiritilgan. Qizil kitobga kiritilgan o'simliklardan biri ekma piyoz . Bu o'simlik ko'p yillik o't bo'lib, selluloza , protein, Mg, P, Fe, Na, Ca, K moddalariga boy. A, B₁ , B₂, B₃ , C , PP vitaminlari mavjud. Piyoz bakteriyalarga hamc infeksiyalarga qarshi vositadir. Piyoz suvi tarkibida fitonsit- tabii bakteriyalarga qarshi moddalar bor. U xolesterol miqdori kamaytiradi, yurakni mustaxkamlaydi va saroton xastaligini oldini oladi. Piyozli maxsulotlar kunlik istemoli saroton xastaligiga chalinishi kamaytiradi.

Qizil kitobga kiritilgan dorivor o'simliklardan biri qora smorodina . Uning mevalari tarkibida B, P vitaminlari, A protamine qand moddasi , pektin moddalari , fosfor kislotasi , efir moyi , guruh vitamin , karotin moddalari mavjud.

Qora smorodina mevalari diabet paydo bo'lishining oldini olish xususiyatiga ega. Turli kasalliklarda darmonsiz bo'lib qolgan organizmni qo'llashda qo'llaniladi.

Qora smorodina saroton xastaliklari , yurak va qon-tomir xastaliklaridan himoyalovchi , ko'zning o'tkirligini uzoq vaqt saqlashga yordam beruvchi xususiyatlari borligi ham aniqlangan. Uning barg va mevalari buyrakdagi toshlarni chiqarib tashlashda jigar va nafas olish yo'llari xastaliklarida foydalaniladi. Smorodina mevasini iste'mol



qilish ateskleroz kasalligida juda katta foyda beradi. Uning su
anginani da'volashda qo'llaniladi

Qora smorodina mevalaridan tayyorlangan qaynatmalar kamqonlik
gipertoniya xastaligi , milklarning qonashi , oshqazon va o'n ikki
barmoq ichak yarasi, gastrit kabi kasalliklarda ijobiy ta's
ko'rsatadi. Turli toshmalar va teri kasalliklarida barglari qaynatilib
vanna qilinadi.

II 4. Dorivor o'simliklarning inson salomatligiga bo'lgan ta'siri.

Har bir dorivor o'simlikning dorivorlik xususiyati har xil bo'ladi. Ularning ta'siri odam organizmiga turlicha ta'sir qiladi. Ularning har bir organi har xil dorivorlik xususiyatga ega va ularning ishlatilishi ham xilma – xildir. Masalan har bir dorivor maxsulot har bir har qay kasallikka da'vo bo'ladi. Eng ko'p tarqalgan dorivor o'simliklarda biri oddiy jag-jag' (achambiti). Achambitining yer ustki qismi ishlatiladi. Xalq tabobatida achambiti o'ti o'pka , bachodan , meda ichak dan qon ketganganda , qon to'xtatuvchi vosit tariqasida shuningdek badan jarohatlanganda , isitma vaqtida , ichketar mahallida ko'p ishlatiladi. Jigar, buyrak va qovuq kasalliklarida hamda moddal almashinuvi buzilgan mahallarda qaynatiladi yoki barg va poyalarni yangi olingan suvi (oddiy suvga aralashtirib) buyuriladi. Hindist tabobatida achambiti o'tidan qisishga qarshi , burishtiradigan, siydi haydaydigan vositasida qon ketar , istisqo, ichketar mahallari foydalaniladi. Undan bachodondan qon ketayotgan paytlarda , me'da yara va raki, bachodon fibriomasi va boshqa o'smalarda hamda bo'yic bo'lishdan saqlaydigan vosita tariqasida buyurishadi.

Zamonaviy tabobatda achambiti o'tining preparatlari sezilar darajada qon to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan . U bachodon silliq muskullarining qisqaruvchanligini kuchaytiradi. Barglari ancha kuchli fitonsit xossalarga ega. Ichak harakatlari kuchaytiradi., ekstraktlari va qon bosimini pasaytiradi. Bu o'tni damlamasi va suyuq ekstrakti ayollarda kasalliklarda , bachoda atoniyasida va qon to'xtatuvchi vosita tariqasida ishlatiladi. Qaynatma ichburug', bezgak, o'pka sili, yurak, jigar kasalliklari, shamollas kasalliklarida , ichketar mahalida va boshqa kasalliklarda ishlatiladi. Ekstraktlari qon bosimini pasaytirishdan tashqari ichak va bachoda harakatlarini kuchaytirishi qon ivishini tezlashtirishni tajribalar

aniqlangan . Spirt va suvda tayyorlangan tinkturalari bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklardan biri dafna daraxti . Dafna daraxtining barglari va mevalari qishda terib olinadi. Xalq tabobatida surunkali xolestitalar, o't- tosh kasalligiga da'vo qilishda dafna moyi 10-15 tomchidan ichiladi. Barglaridan tayyorlangan damlamasini qandli diabetga da'vo qilish uchun buyuriladi. Dafna barglari , po'stlog'I, ildizlari, mevalari va moyi qadimdan juda ko'ri ishlatilgan . Abu Ali Ibn Sino ma'lumotlariga qaraganda , dafna falajlarga , jigar taloq, o'smalari, bo'g'im va jigar og'riqlari , bosh og'rig'I, qulc shang'illashi , yuqori nafas yo'llari qatoriga yaxshi da'vo bo'ladi. Dafna moyi ko'ngilni aynitib, qustiradi, siydik haydaydi. Dafna barglarini 6 gr miqdorida olib, asal qo'shilgan suv yoki teng barob sirka bilan asal aralashmasiga solib ichilsa , ich yaxshi yurishadi. Dafna toshlarni ham maydalaydi, ko'pgina zaharlar kuchini qirqadiga ziddizahar o'rnini bosadi.

Zamonaviy tabobatda dafna moyi revmatizmga badanga iylanadigan surtma moyga qo'shib ishlatiladi. Yana bir tabobatda eng kerakli qo'llaniladigan dorivor o'simliklardan biri yalpizdir

Yalpiz-



labguldoshlar oilasiga mansub ko'phttps://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBp_yillik_o%CA%BBtlar_yilliko'simliklar tu

kumi, dorivor va efirmoyli o'simlik. Shim.yarim sharning iliq iqlim mintaqalarida

25 turi tarqalgan. Yevropamamlakatlari, AQSH, Ukraina, Belorussiya va Shimoliy Kavkazda Ya.ning taxir (achchiq) Ya. va jingalak Ya., Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqalar mamlakatlarda dalayoki suv Y turlari ekiladi. O'zbekistonda 4 turi: suv Ya., osiyo Ya.i, taxir (achchiq) Ya. v jingalak Ya. yovvoyi holda o'sadi, Poyasi tik shoxlangan, bo'yi 25—100 s. gacha, barglari qarama-qarshi joylashgan, rombsimon, nashtarsimon yo tuxumsimon, gullari chala soyabonsimon to'pgulga yig'ilgan, binafsharang May—okt.da gullaydi. Ya. yorug'savar, namsevar o'simlik. Barglarida 2,5-3%, gullarida 4—6%, poyasida 0,3% mentol (validolning tarkibiy qismi)ga bo'lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar bor. Tibbiyotda Ya. bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) damlamasidan ko'ngil ayniganda hamda o't haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. Barglari va poyasidan olingan yalpiz moyi parfyumeriya, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda, bahorda yangi chiqqan barglari oshko'k sifatida ishlatiladi. Vegetativ (bahorda ildizini bo'lib ekish) yo'li bilan ko'paytiriladi. O'zbekistonni barcha viloyatlarida nam yerlarda, ariq va daryo bo'ylarida o'sadi.

Kashnich (Coriandrum) —

soyabonguldoshlaroilasigamans
ubbiyilliko'simliklarturkumi,
efirmoylivako'kat-
sabzavotekini.

O'rtadengizatroflarida 2 turi,

O'rtaOsiyoda 1 turi — ekmaK.

(C.sativum) o'sadi.Yevropa,

Shim. Afrika, Osiyo, Shim. Amerika, mamlakatlarida, Ukrain

Rossiyaningmarkaziyqoratuproqviloyatlaridaxo'jalikmaqsadlaridaekiladi.Urug

idanyetishtiriladi.K.



poyasiqirrali,

sersho

barglari uzunbandli. Gullari oqyoki pushti;

soyabonlarga to'plangan. Mevasiyumaloq. Bir urug'iochilmaydigan ikki meva bilan aniborat. Sovuqqachidamli. Ertabahordan kech kuzgacha ekish mumkin.

Nihollari

32—

kundako'katsabzavot holida foydalanishgayaroqlibo'ladi. Urug'i 90—95 kunda pishadi. 1000 dona urug'i vazni 5—8 g. K.ning barglarida kaliy tuzlari, oqsillar, vitaminlar V1, V2, S, R, provitamin A mavjud. Urug'ida 0,2—1,4% efir moyi va 16—28% texnik moy bor (parfyumeriya, qandolatchilik, oziqovq sanoatida ishlatiladi). K. ko'kati sho'rva, go'shtli va sabzavotli ovqatlarga urug'i va yosh maysalari ziravor sifatida go'sht sirkalashda ishlatiladi. Souslarga solinganda xushbo'y ta'm beradi. K. asalshirali o'simliklar guruhiga kiradi. Urug' bo'yicha hosildorligi 8—15 s/ga. O'zbekistonda K.ning Yanti ("Qahrabo") navi 1953, Orzu navi 1999, Orom navi 2001 y. dan tashlab olinib olinishtirilgan. Og'izdagi yoqimsiz hidni ketkazishda, ichak kasalliklarini davolashda ham shunday damlama ichiladi. Ovqatga solib ham iste'mol qilinadi.

Maymunjon—



ra'noguldoshlar oilasiga mansub ko'phttps://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBp_yik_o%CA%BBsimliklaryillik butalar turlari; rezavo

meva. Shim.Amerika, Yevrosida 400 dan ortiq turi uchraydi. Shularda 90 turi, asosan, ko'k M. (Rubus caesius) va mayda mevali M. (*R. nensensi*) turlari Kavkaz, Ukrainaniig jan. va U

rthttps://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBrta_OsiyoOsiyola uchraydi. Amerik

Markaziy va G'arbiy Yevropada kup zkilali. O'zbekistonning tog' ol mintaqalarida usadi va dala, tomorqa-bog'larla o'stiriladi. Yer ustki qismi ik yillik novdalarlai iborat.

Barglari patsimon. Vir yillik novdasi hosil tugadi. Gullari ikki jinsli, o ba'zan pushtibo'lib,

shingilsimon tupgulla joylashgan. Mevasi tutgayxni iiguj. sersuv, shirin-nord rangiqoramtir, qizil. Urugi mayda. Meva tarkibila 4—6% kand, 0,8—1,4% organikhttps://uz.wikipedia.org/wiki/Organik_kislotalar, S vitamini va karotin mavjul. Mevasi yangiligila yoki quritib yeyiladi, qiyom tayyorlanal konserva sanoatila ishlatiladi, ildizpoyasi va barglari tibbiyotda qullanilac M.ming mevalari yirik va shirin bulgan ayrim yovvoyi turla madaniylashtirilib, seleksiya navlari chiqarilgan (300 dan ortiq navlari bor). M ko'chatlari arta bahorla yoki kuzda 2x0,75 m sxemala ekiladi. M. novdada simbagazlarga boglanadi. Hosillorligi 50—70 s/ga. M. 12—15 yil yashaydi.

Tabiiy holda begona o't sifatida o'sadigan dorivor o'simliklardan bi mingdevonadir. U shaytonkosa deb ham ataladi. Uning barglari, urug'la ishlatiladi. Mingdevona tabobatda og'riq qoldirish uchun ishlatilad Uning barglaridan olinadi gan shirasi o'smalar va quloq og'rig'ig qda'vo sifatida buyuriladi. Urug'laridan aroqda tayyorlangan ekstrak talvasa tutganda ishlatiladi. Barglaridan tayyorlanadigan malhami

yaralarga yiringda tozalash uchun qo'yiladi. Abu Ali Ibn Sino barglarida siqib olingan suvni quloq, ko'z va tish kasalliklarida ishlatgan.

Tabiiy holda tarqalgan o'simliklar juda ko'p bo'lib, ularning hammasining biologiyasi ta'siri to'liq o'rganilmagan

Aloy.Aloe (Aloyo Tourn .L.)

Aloy turlari bo'yi vatanida 4m gacha yetadigan doim yashil daraxtsimon o'simlikdir.

Tibbiyotda aloyning ikki turi –daraxtsimon aloy- aloe derevovidnoye (Aloyo arborescens Mill.)va yo'l-yo'l aloy- aloe polosatoye (Aloyo striatula Haw.)dan dorivor vosita sifatida foydalaniladi.



Aloy turlarining vatani Afrikaning janubi-sharqidagi yarim cho'l tumanlari hisoblanadi. Ular Gruzija, Ukraina va Markaziy Osiyoda bir yillik o'simlik sifatida hamda xonalarda o'stiriladi.

Tibbiyotda aloy turlarining quritilgan shirasi-sabur, bargi hamda biogen stimulyatorlarga boy bargining dorivor preparatlari -suyuq ekstrakti (flakon va ampulada chiqariladi), shira, sharbat, tabletka va suyuq surtma-linimentida foydalaniladi.

Sabur va aloy bargi tarkibida antraglikozidlar, smolalar, efir moyi, achchiq va boshqa moddalar bor.

Saburning katta dozasi surgi dori, kichik dozasi ishtahani ochuvchi sifatida tibbiyotda ishlatiladi. Aloy bargining suyuq ekstrakti, tabletkasi ko'pincha (kon'yunktivit, ko'z shishasimon tanachasining xira tortishi va boshqalar), me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi, bronxial astma, surunkali artrit va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Bargning suyuq ekstrakti suyuq surtma (liniment) shaklida va uning shirasi kuyganga, turli yaralarga, quruq va ho...

epidermatitlarga, nur terapiyasi natijasida II-III darajali kuygan joylarga qo'yiladigan o'simliklar, gastrit, enterokolit va qabziyatda ichish uchun (choy qoshig'ida) buyuriladi.

Xalq tabobatida aloy bargi va shirasi turli yaralarni (me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi) hamda o'pka silini davolashda ishlatiladi.

XULOSA

Shunday qilib dorivor o'simliklar turli xil ekologik sharoitlarda tarqalgan. Ularning tana tuzulishi ularning o'sib turgan joyiga qarab turlicha bo'ladi. Masalan ular daraxt, buta, ko'p yillik, ikki yillik va bir yillik hayotiy shakllarga ega bo'ladi. Dorivor o'simliklardan turli xil dorivor darmonlar qaynatmalar, damlamalar tayyorlandi. Ular turli xil kasalliklarda ishlatiladi. Dorivor o'simliklarning tarkibi ham xilma-xil. Tabiiy holda uchraydigan eng ko'p tarqalgan dorivor o'simliklarda isiriq. U juda shifobaxsh o'simlik va juda keng tarqalgan. Ularning poyasi va mevasi juda dorivordir. Na'matak esa juda vitaminlarga boydir. U tabobatda katta ahamiyatga ega. Dorivor o'simliklar hozirga kunda soni kamayib ketayotganligi uchun ularni muhofaza qilish uchun "Qizil kitob" ga kiritilgan. Dorivor o'simliklarni juda qadimdan olimlar o'rganib kelganlar. Hozirgi kunda ularsiz tabobatni his qilib bo'lmaydi. Dorivor o'simliklar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, ulardan foydalanishni bilish kerak. Ular inson hayotida muhim o'rin egallab, uning har bir organik bo'ladigan kasalliklariga da'vo bo'ladi. Ularning tarkibida ayniqsa vitaminlar juda ko'p bo'lishi aniqlandi. Dorivor o'simliklar ichida sun'iy sharoitda o'stiriladigan turlari ham keng foydalaniladi. Masalan oddi

xonadonlarda o'stirilidan aloe . U juda ham foydali bo'lib oddiy u
sharoitida ham undan keng foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Q.H. Haydarov, Q. H.Hojimatov “O’zbekiston O’simliklari “ Toshkent 1992.
- 2.H.X.Xolmatov, Z.H.Habibov, N.Z. Olimho’jayev, “O’zbekistondagi shifobaxsh o’simliklari” Toshkent 1991.
- 3.V.Karimov, A.Shomahmudov “ Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibbiyotda qo’llaniladigan shifobaxsh o’simliklar “ Toshkent 1993
- 4.Mustafayev S. “Botanika “ O’qituvchi 2012
- 5.Mustafayev S. Axmedov A “Botanika “ 2001
- 6.www ziyonet .uz
7. www google . uz
8. X.Hamidovvaboshqalar “ O’zbekistondagi o’simliklarni aniqlagichi” O’qituvchi 1986
9. Mahmedov .A.M Botanika fanidan ma’ruzalar 2003
10. To’xtayev S. G.S. Tursunboyeva “botanika asoslari” - T 2001.

ILOVA






ILOVA



MUNDARIJA:



1 .KIRISH.....	1
2.ASOSIY QISM.....	3
3 .Dorivor o’simliklarning sitematik va ekologik guruhleri .Hayotiy shakllari.....	8
4.Tabiiy holda tarqalgan dorivor o’simliklarning biologiyasi va ekologiyasi.....	14
5.”QIZIL KITOB”ga kiritilgan dorivor o’simliklar.....	18
6.Dorivor o’simliklarning inson salomatligini saqlashdagi ahamiyati.....	20
7 .XULOSA.....	27
8. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	29